



LINGVISTIKADA TERMIN VA TERMINLAR TIZIMI

*Yuldashev Munavvarovjon o‘gli,
Qo‘qon DPI, doktoranti*

Annotatsiya: Terminologiya-bir yoki bir necha tillarda maxsus fan sohasiga oid leksik birlklarni, ya’ni terminlarni jamlash, shakllantirish va ta’riflash yuzasidan olimlar tomonidan o‘rganiladigan fan hisoblanadi. So‘nggi tadqiqotlar natijasida, hozirgi paytda 250 dan ortiq terminologik tizimlar mavjudligi aniq bo‘ldi. Shuning uchun, atamashunoslik til ta’limotining fan tarmog‘i sifatida, o‘z oldiga tilning turli fan tarmoqlari bilan bog‘liqlilarni o‘rganishdek vazifani oldiga qo‘yadi. Bir necha bilim sohalarning kesishmalarida ko‘plab sohalararo bilim tarmoqlari paydo bo‘ldi va ulardan eng muhimlari ajralib chiqdi, bular: mantiq, lingvistika, semiotika, sistemalogiya (tizimlarning umumiy nazariyasi), bular o‘z o‘rnida amaliy va nazariy atamashunopslikni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: diaxroniya, sinxroniya, dixotomiya, sinonimiya, tizmlilik g‘oyasi.

Turli terminologik tizimlar, biror bilim sohasining rivojlanish evolyutsiga bog‘liq. Har qanday terminologiyaning tarixi -juda ham uzaoq vaqt mobaynidagi terminlarni soha-bo‘linmalar bo‘yicha tartib bilan, ma’nosiga qarab yetkazilgan jarayondir. Terminlar, kelib chiqish izlarini uzoq vaqt saqlashadi. Ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, ixtiolar, madaniyatni rivojlanishi terminlarda o‘z aksini topadi. Tushunchalar hayotini, ularning nomi bo‘lmish-terminlar faoliyati orqali kuzatishimiz mumkin. Terminologiya turli fan-texnika, va ijtimoiy hayotdagi bugungi kungi rijolanish darajasiga to‘g‘ri kelishi kerak. Shuning uchun, terminlarni o‘rganishda sinxron yondashuv ustunroq ahamiyatga ega. Terminlarni o‘rganishda sinxron yondashuv, terminning zamonaviy tabiatini, turli terminologik tizimlarning morfologik, semantik, so‘z yasash jihatlardagi faoliyatini o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Bundan tashqari, sinxron yondashuv, terminlar fiksatsiyasini, ya’ni barqaroq terminosistemlarni o‘rganadi. Biroq, terminologiya muqim, barqaror yoki o‘zgarmas leksik qatlam hisoblanmay, dinamik xarakterga ega. Turli fan tarmoqlardagi ilm-fanni rivojlanishi terminologik tizimni o‘zlucksiz va dinamik tarzda ma’no jihatdan o‘zgarishi olib keladi.

Termilarni tarixiy rivojlanish (diaxronik) jihatdan o‘rganish, ko‘plab tilshunos olimlarning fikriga ko‘ra: maxsus leksikaning shakllanish xarakter va usullari to‘g‘risida aniq va to‘liq batafsil tushuncha beradi. Terminologiyani diaxronik jihatdan o‘rganishda “tarix” tushunchasi deganda u yoki bu fan tarmog‘idagi, texnikaga oid, tabiyat, madaniyat va hokazoga oid bilimlar tizimining izchil o‘zgarishlarni tadqiq qilish tushuniladi.

Diaxronik yondashuvning asosi sifatida XX-asr boshlarida F.de Sossyur ilgari surgan sinxroniya va diaxroniya hodisalarini bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish dixotomiyasi (juftligi, grek. διχοτομία: δίχη, «ikkiga» + τομή, «bo‘lish», butun bir narsani izchil ravishda bir-biriga bog‘liq bo‘lgan ikki bulaklarga bo‘lish, va ulardan biri boshqasiga zid bo‘lishi) yotadi.

Diaxronik yondashuvning vazifalari to‘g‘risida Ingliz faylasufi va jamiyatshunos olimi Gerbert Spenserning fikrlari nihoyatda qimmatlidir: Diaxronik



yondashuvni evolyutsion yondashuv deb atardi, va evolyutsion yondashuv eng avvalo til sohasidagi butun borliqni umumlashtirish yoki bir-biridan yot narsalarni o‘zaro yaqinlashtirish uchun xizmat qiladi. O‘zining qarashlarini umumlashtirib, juda ham qisqa qilib aytganda u "evolyutsiya har doim materuyani integratsiyasini, borliqdagi jamiki harakatni tarqalishidir" degan.

Hech qanday shubhasiz, sinxron analiz, ayniqsa hozirgi tilimizning holatiga ko‘ra, misol va dalillar keltira olish hamda "yuqori darajada foydalanishga mavjudligi" bilan amaliyotda qo‘llashga nihoyatda qulay. Sinxroniyani diaxroniyadan ustunligi haqida gap ketganda shveysariyalik tilshunoslik, Tilshunoslik rivoji yo‘lida semiotika yoki semiologiya kabi tilshunoslikni muhim tarkibiy qismlarini asos soldi, sotsiologik maktab asoschisi Ferdinand de Sossyur o‘z ilmiy ishida, diaxronik lingvistikada tildagi emas, balki nutqdagi dastabki o‘zgarishlar bilan shug‘ullansa sinxron lingvistikada, tilning holati, qanday bo‘lsa shundayligicha namoyon bo‘ladi. Diaxronik lingvistikada "tilning yagona va rostonha obyekti bo‘lmish "o‘zi ishlatayotgan tilning o‘zi uchun" o‘rganishdek vazifadan mosuvo.

Lingvistik terminlarning tizimliligi, zamonaviy tilshunoslikda eng ko‘p muhokama qilinadigan xususiyatidir. Terminning eng muhim sifatlaridan biri bu uning tizimlilikidir. Tildagi tizimlilik munosabati F.de. Sossyurning Jeneva Universitetidagi leksiyalardagi yangi g‘oyalari asosida yaratilgan "Umumiy tilshunoslikning kursi" nomli kitobi (1916, ulimidam so‘ng shogirdlari tomonidan nashr etilgan) dunyoga tanishtirilgandan sung, ke ng o‘rganila boshlandi, xususan F.de. Sossyur tildagi tizimlilik munosabati haqida gap ketganda shunday degandi: Til bu yaxlit tizim, undagi barcha elementlar yaxlit bir butunlikni hosil qiladi, undagi hatto bir elementning o‘rni va ahamiyati faqatgina uning yana boshqa bir ekvivalentida to‘liq mavjud bo‘lgandagina o‘z ahamiyatini yo‘qotishi mumkin. Leksikada tizimlilik g‘oyasi timsolini ko‘plab o‘zbek va rus olimlarini ilmiy ishlarida ham ko‘rsak bo‘ladi. V.V. Vinogradov, O.S. Ahmanova, S.I. Ojegov, F.P. Filin, A.I. Smirnitskiy, I.A. Sternin, Bushuy T.A va Shahriyor Safarov, R.Rasulov, Ne‘matov H., O. Ahmedov.

Terminologiya-bu maxsus-professional tushunchalarni bildiruvchi so‘z va so‘z birikmalar yig‘indisi bo‘lib, turli fan tarmoqlarida va til faoliyatini turli sohalarida keng qo‘laniladi. Terminologiya bir necha xususiyatlaru bilan lingvistik mohiyatga ega.

1) Terminologianing asosiy vazifasi bo‘lmish so‘zlovchilarining kasbiy-mehnat ehtiyojlaridan kelib chiqib, ularga muloqot vositasi bo‘lib xizmat qilishi

2) Terminologiya bir so‘zli va birikmali atamalardan tashkil topgan bo‘lib, va shu elementkarni bog‘laydigan munosabatlar lingvistik mohiyatan o‘rganiladi

3) Genetik va tipologik jihatdan oddiy atamalar umumtil so‘zlar bo‘lishi ham mumkin, yoki o‘zlashma, original so‘z, so‘z yasash orqali hosil bo‘lgan so‘z ham bo‘lishi mumkin.

4) Oddiy (bir so‘zli) atamalar umumtil so‘zlaridan o‘znining semantik tuzilishi bilan farqlanadi.

5) Atamalani so‘z yasash usullari tilshunoslikdagi umumiy so‘z yasash qonunqoidalariga to‘liqligicha bo‘ysunadi. Terminlarning morfologik xususiyatlari tiln uchun umumiy bo‘lgan grammatik tuzilishga bo‘ysunadi.

6) Terminlarni bog'lab turuvchi semantik munosabatlar mantiqiy xarakteriga ega. (rod (rus tilida), tur, assortiasiya)

Tepada sanab o‘tilgan terminologiyaning belgilari bizlarga tizimlilik haqida gapirishga imkon beradi, ya’ni terminologiyani lingvistik birliklarning tizimidek ko‘rib chiqsak bo‘ladi.

A.Refotmatskiy, T.L.Kandelaki, A.Baskakakov, V.P.Danilenko, V.M.Leychik, S.D. Shelov va boshqalar Terminologiyaning tizimliligin o‘z ilmiy ishlarida o‘rganishgan. Maxsus adabiyotlarda ta’kidlanganidek, terminlar tizimi qaysidir bilim sohasining bir modeli sifatida vujudga kelishi, usha soha yetarli darajada shakllangan bo‘lishi, o‘z nazariyasi va o‘zining asosiy o‘rganish obyektlarini va ularni bir-biri bilan bog‘laydigan aloqalarni belgilab olishi bilan belgilanadi.

Olimlarning fikriga ko‘ra, terminlar tizimining shakllanishi uchun ma'lum bir shart-sharoitlar yaratilgan bo‘lishi kerak: eng avvalo, terminlarni ishlatish uchun o‘zining aniq chegaralari bor ixtisoslki sohani o‘zi bo‘lishi kerak, ushbu sohani ta’riflashda yetarli darajada kuchli konsepsiyanı bo‘lishi, maxsus maqsadlar uchun tilni doirasida tabiiy tilni bo‘lishi, ushbu tushunchalar tizimidagi tushunchalarning (obyekt, belgilar va sifatlarni) anglatish yoki bildirish uchun qo‘llash mumkin bo‘lishi bilan belgilanadi. Zamonaviy olimlarning bildirishicha, terminlar tizimi bir necha xususiyatlarga: yaxlitlik, nisbatan barqarorlik, strukturaviylik va bog‘liqlik ega. Terminlar tizimining yaxlitligini ta‘minlovchi asosiy mezon bu maxsus sohani barcha tushunchaviy elementlari terminlar tizimining elementlari bilan to‘liqligicha yoki yetarlicha darajada kerakli elementlari bilan qamrab olinishi bilan belgilanadi. Nisbatan barqarorlikni esa terminlar tizimi ilmiy qarashlarni ilmiy qarashlarni yetarli darajada aks ettira olish, mukim obyekt, uslub va boshqalarning mezonlar tizimini aks ettira olishida ko‘rishimiz mumkin. Terminlar tizimimning eng muhim xususiyatlaridan biri bo‘lgan strukturaviylikni, undagi tuzilma degan elementni mavjud bo‘lishi bilan tushuntiriladi. Ilmiy adabiyotlarda ta‘kidlanganidek: "termin, tizimning ajralmas elementi hisoblanib, agarki tizim atamasi deganda, biz butunlikni tashkil qiluvchi elementlar yig‘indisi deb qarasak, ularni orasida albatta uzviy bog‘liqlik mavjuddir. Ushbu butunlik ichidagi elementlar orasidagi uzviy bog‘liqliklar yi‘gindisi uning strukturasini tashkil etadi.

Atamashunoslik bo'yicha maxsus adabiyotlarda ta'kidlanganidek: terminologiyaning tizimliligini o'rghanish uchun terminologiyaning tushunchalar strukturasi bilan til strukturasi bilan solishtirish nihoyatda istiqbollidir, chunki terminlogiyaning tizimlilgi - bu aniqlikni darjasи hamda til va semantik strukturasi o'zaro izchilligidir. Terminologiya terminlar tizimini xususiyatlariga ega bo'lishi, undagi tushunchalar strukturni asi va til strukturasi qanchalik izchil bo'lishi bilan belgilanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Головин Б.Н., Кобрин Р.Ю. Лингвистические основы учениях о терминах. Москва: Высшая школа, 1987. -С. 772. Смирницкий А.И. Морфология английского языка. - М.: Изд-во лит-рн на иностранных язника, 1959.-440 с.
2. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Узбек тили систем лексикологияси асослари: Олий ўкув юрти талабалари
3. Мякшин К. А. К вопросу об изучении терминологических систем в диахронии //Наука, образование и культура. – 2016. – №. 11 (14). – С. 24-27.
4. Дианова Г. А. Термин и понятие: проблемы эволюции (к основам исторического терминоведения). / Г. А. Дианова. М.: Еврошкола, 2000. 184 с;
5. Даниленко В. П. Синхрония и диахрония в лингвистике //Вестник Иркутского государственного лингвистического университета. – 2011. – №. 4 (16). – С. 5-11.